

Date: 3rdFebruary-2025

BADIY ADABIYOTDA JURNALIST OBRAZINI YARATISH

Malikova Go‘zal Tursunpo‘latovna

BuxDU o‘zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: guzalmalikova91@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy adabiyotda jurnalist obrazini yaratish muammosi ko‘rib chiqiladi. Ushbu kasb vakillarini tasvirlashda turli yondashuvlarni tahlil qilinib, e’tibor berish kerak bo‘lgan asosiy jihatlar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, unda adabiyotda jurnalist obrazi ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkinligi qayd etilib, turli mualliflarning ushbu obrazni yaratishga turlicha yondashishi, uni gavdalantirish uchun qanday usullardan foydalanishlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, jurnalist, obraz, kasb, jamiyat, axloq, mahorat, uslub.

Ma’lumki, adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni obrazlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Sababi badiiy obrazlar asarlarni boyitibgina qolmay, ularga ta’sirchanlik va ma’no ham beradi. Kitobxon obrazlar yordamida hayotni, insonlar va ularning o‘zaro munosabatlarini chuqurroq anglashga intiladilar.

Mashhur rus adabiyotshunosi V.Y.Xalizov o‘zining “Теория литературы” asarida badiiy obraz uchun quyidagi ta’rifni keltiradi: “Обращаясь к способам (средствам), с помощью которых литература и другие виды искусства, обладающие изобразительностью, осуществляют свою миссию, философы и ученые издавна пользуются термином «образ» (др.-гр. эйдос — облик, вид). В составе философии и психологии образы — это конкретные представления, т. е. отражение человеческим сознанием единичных предметов (явлений, фактов, событий) в их чувственно воспринимаемом обличии.”⁶ Ya’ni, “Tasviriy sifatlarga ega bo‘lgan adabiyot va san’atning boshqa turlarining o‘z missiyasini amalga oshirish usullari (vositalari) haqida gap ketganda faylasuflar va olimlar qadimdan “obraz” (qadimgi yunoncha “eidos” — “ko‘rinish”, “tur”) atamasini qo’llashgan. Falsafa va psixologiyada obrazlar – bular aniq tasavvurlar, ya’ni individual obyektlarni (hodisalar, faktlar, hodisalar) inson ongi tomonidan ularning hissiy idrok etilgan shaklida aks ettirishdir. Shu bois badiiy obrazga san’atning eng muhim vositalaridan biri sifatida qarash juda o‘rinli. Ijodkor badiiy obraz orqali hayotni, undagi voqeа-hodisalarini va ularga nisbatan hissiy munosabatini ifodalaydi.

O‘zbek adabiyotida mamlakat tarixiy tamaddunidan boshlab to hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan madaniy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hayot, unda umrguzaronlik qilib kelayotgan turli kasb, hunar, xarakter-xususiyatga ega insonlar obrazi o‘zining badiiy hamda realistik ifodasini topib kelgan. Shuningdek, ko‘pgina obrazlarni turli janriy-badiiy kompozitsion jihatdan o‘ziga xosliklarini o‘rganish, uning badiiy-estetik, ma’rifiy-ma’naviy va ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etish hamisha muhimlik kasb etib

⁶ Теория литературы: Учебник/В. Е. Хализев.— 4-е изд., испр. и доп.— М.: Выш. шк., 2004.-405 с.

Date: 3rdFebruary-2025

kelgan. Zero, adabiy obrazlar ham aslida insoniyat ma’naviy kamolotiga munosabat sifatida jamiyatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, har bir milliy adabiyotda o‘ziga xos jihatlari bilan alohida ajralib turadi.

Binobarin, dunyo adabiyotshunosligida, jurnalist obrazi evolyutsiyasiga badiiy-estetik hodisa sifatida yondashish, obraz talqinida ijodkorlarning badiiy mahorat qirralarini ochish, jurnalist olamini badiiy aks ettirishda tarixiy haqiqatdan foydalanish, jurnalist kasbining nabotot va hayvonot, tabiat va jamiyatga munosabatlari talqinidagi realistik va badiiy, tarixiy-falsafiy, ijtimoiy va ma’naviy omillarga vobastaligi masalalari keng yoritilmoqda. Jumladan, o‘zbek adabiyotida jurnalist obrazi badiiy va realistik ifoda etilgan qissa va romanlar, hikoya va esselardagi evolyutsiyasi, o‘ziga xos tamoyillarini tahlil va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, Prezidentimizning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har taraflama qo‘llab-quvvatlash, kadrlar salohiyatini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirish maqsadida ta’kidlagan, xususan, oliy ta’lim muassasalarida jurnalistika sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash e’tibor qaratish bilan fikrlari baayni o‘zbek adabiyotida jurnalist obrazi evolyutsiyasini o‘rganish zaruriyatini qo‘yadi⁷.

Adabiyotshunosligimizda umuman turli obrazlar talqini, tarixiy shaxslarning badiiy ifodasini o‘rganish muntazam davom etib kelmoqda. Jumladan, o‘zbek matbuoti o‘zining 150 yillik tarixi davomida talay fidoyi jurnalistlarni yetishtirdi, jurnalistning jamiyatda, tarixiy taraqqiyotda, ijtimoiy hayotda tutgan munosib o‘rnining e’tirofi o’laroq badiiy talqin etila boshladi. Ayniqsa, jahon va rus adabiyotida zamонавиy jurnalist obrazi tadqiqi ancha ilgari boshlangan⁸. O‘zbek adabiyotida esa ayollar obrazi⁹, ona obrazi¹⁰ bilan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shuningdek, tarixiy shaxslar masalan, Jaloliddin Manguberdi, To’maris, Shiroq, Ulug’bek, Ibn Sino, Amir Temur obrazi badiiy talqin etilgan qissa va romanlarni yaxshi bilamiz. Jurnalist obrazi ham o‘zbek adabiyotining namunalarida o’tgan asrning o‘rtalaridayoq kuzatiladigan, ko’p uchraydigan timsollardan biridir. S.Ahmadning “Kelinlar qo‘zg’oloni” komediyasi, O.Husanovning “Tog’dan o’sgan bola”, O’.Hoshimovning “Nur borki, soya bor” singari asarlar shu ma’noda e’tirofli. Ammo, o‘zbek adabiyotida jurnalist obrazi evolyutsiyasining talqini, badiiy-estetik vazifasi, jumladan, zikr etilgan asarlardagi kabi o‘ziga xos ko’rinishlari, janriy, badiiy-kompozitsion xususiyatlari monografik tizimda yaxlit o‘rganilmagan. Shu bois o‘zbek badiiy adabiyotida jurnalist obrazi mavzusini o‘rganish dolzarbdir.

⁷ Mirziyoyev Sh.M. Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida. 27.06.2022. <https://president.uz/oz/lists/view/5293>

⁸ Быкова Ю.Н. Образ журналиста: эволюция восприятия в новейшее время.
<https://cyberleninka.ru/article/n/obraz-zhurnalista-evolyutsiya-vospriyatiya-v-noveyshee-vremya>; Каминская Д. Образ современного журналиста. <https://xn--7sbafuabraerjyjmxvsmn8f.xn--p1ai/obraz-sovremennoogo-zhurnalista/>

⁹ Ashurova, N. (2022). Tarixiy romanlarda ayollar obrazi tasviri. Razvitie lingvistiki i literaturovedeniya i obrazovatel’nyx texnologiy v epoxu globalizatsii, 1(1), 206–209. izvlecheno ot <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5534>

¹⁰ Isaboeva G. O‘zbek qissachiligidida ona obrazi talqinlarining badiiy ifodasi. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-issachiligidida-on-a-obrazi-tal-inlarining-badiiy-ifodasi-viewer>

Date: 3rdFebruary-2025

Xo'sh jurnalist o'zi kim? Jurnalist obrazi ko'z oldimizda qanday gavdalanadi?

Jurnalist — asosiy faoliyati jurnalistikaga bilan shug'ullanish bo'lgan, muhim faktlar, voqealar, odamlar, hodisalar haqidagi axborotni yig'ish, qayta ishlash va uni auditoriyaga yetkazish orqali OAVni axborot bilan to'ldiruvchi kishi¹¹. Shuningdek, jurnalist ijodkor, xalq bilan yuzma-yuz bo'luvchi suhbatdosh, jamiyatdagi muammo va illatlarga shunchaki ko'z yumib keta olmaydigan munaqqid, haqiqat mash'alini mahkam tutguvchiadolat kishisi hamdir. Aslida chin jurnalist siymosi mana shunday gavdalanadi. Ammo u ham oddiy bir inson ekanini inobatga olsak, ayrim jurnalislarda yuqoridagi xislatlar kuzatilmasligi ham mumkin. Jurnalist obrazidan foydalangan har bir muallif odatda qahramonini o'z shaxsiy tajribasi, kuzatishlari va dunyoqarashlaridan kelib chiqib tasvirlaydi.

Qoidaga ko'ra jurnalistlar kirishimli, ochiqko'ngil, savodli, nutqi ravon, dunyoqarashi keng, so'z boyligi katta hamda qalami o'tkir, ochiq kasb egalari bo'lishadi. Jurnalislardan suhbatdoshga savol berish va ularni tinglay olish san'atiga ham ega bo'lmoqliklari lozim. Shuningdek, ular har qanday ijtimoiy maqomdagini insonlar bilan tez til topisha oladigan yaxshi diplomat hamdirlar. Umumiy qilib aytganda, jurnalist obrazi – bu doimiy ravishda takomillashib boradigan murakkab va ko'p qirrali obrazdir. Yuqorida sanab o'tilgan fazilatlar jurnalistga o'z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi.

Jurnalist obrazini yaratishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

* Kasbiy mahorati: Jurnalist o'z ishining ustasi bo'lishi, axborotni to'plash, tahlil qilish va yetkazishda mahoratli bo'lishi kerak. Uning qiziqish doirasi keng, turli mavzularda ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

* Shaxsiy fazilatları: Jurnalist obrazini jonli va ishonarli qilish uchun unga o'ziga xos shaxsiy fazilatlar berish kerak. Bu fazilatlar uning kasbiy faoliyatiga ta'sir qilishi, uning xarakterini ochib berishi mumkin. Masalan, jurnalist prinsipial, adolatli, jasur, mehnatsevar yoki aksincha, mansabparast, qo'rqoq, dangasa bo'lishi mumkin.

* Ichki dunyosi: Jurnalistning ichki dunyosi, uning orzu-umidlari, qo'rquvlari va kechinmalari obrazni yanada boyitadi. Muallif jurnalistning ichki monologlari, uning boshqa odamlar bilan munosabatlari orqali uning ruhiy holatini ochib berishi mumkin.

* Jamiyatdagi roli: Jurnalist obrazi jamiyatda muhim rol o'ynaydi. U odamlarga axborot beradi, ularning fikrlarini shakllantiradi, jamiyatdagi muammolarni ko'taradi. Muallif jurnalistning jamiyatdagi rolini, uning faoliyatining oqibatlarini ko'rsatib berishi kerak.

Jurnalist obrazini yaratishda muallif turli xil badiiy vositalardan foydalanishi mumkin. Bularga portret, xarakteristika, nutq, harakatlar, ichki monolog, dialog va boshqalar kiradi. Obrazni yaratishda muallifning uslubi, uning dunyoqarashi va g'oyasi ham muhim rol o'ynaydi.

Badiiy adabiyotda yaratilgan jurnalist obrazlari turli xil bo'lishi mumkin. Ba'zi obrazlar idealizatsiya qilingan, boshqalari esa realistik tarzda tasvirlangan. Ba'zi obrazlar

¹¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jurnalist>

Date: 3rdFebruary-2025

ijobiy, boshqalari esa salbiy bo'lishi mumkin. Har bir obraz o'ziga xosligi, o'zining xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Jahon adabiyotining zabardast vakillaridan bo'lmish Jek Londonning "Martin Iden"¹² hamda Gi de Mopassanning "Azizim"¹³ asarlarida qiyinchiliklar ortidan muvaffaqiyatga erishishsga bo'lgan ilinj hamda ijodda, aynan jurnalistikada o'z o'mini topishga harakat qilgan ikki qahramon yigit tasviri bor. Qaysidir jihatlari bilan go'yo ular o'xshahs, ko'pgina o'rnlarda esa ayri xarakter egalari. Albatta, bu yuqorida ta'kidlaganimizdek, mualliflarning shaxsiy tajribasi, kuzatuvlari va uslubiga asoslangan.

Jurnalist obrazini yaratishda quyidagi usullardan ham foydalanish mumkin:

* Jurnalistning nutqi: Jurnalistning nutqi, uning so'z boyligi, gapirish uslubi va boshqa xususiyatlari uning obrazini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

* Jurnalistning tashqi ko'rinishi: Jurnalistning tashqi ko'rinishi, uning kiyinishi, soch turmagi va boshqa xususiyatlari uning obrazini yaratishda yordam beradi.

* Jurnalistning harakatlari: Jurnalistning harakatlari, uning yurishi, imo-ishoralari va boshqa xususiyatlari uning obrazini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Badiiy adabiyotda jurnalist obrazini yaratishda yozuvchi o'zining fantaziyasidan, kuzatishlaridan va tajribasidan foydalanadi. Jurnalist obrazi realistik, murakkab va qiziqarli bo'lishi kerak. U o'quvchining e'tiborini tortishi, unga ta'sir qilishi va uzoq vaqt xotirasida saqlanib qolishi kerak. Jurnalist obrazini yaratishda uning individualligini va o'ziga xosligini ko'rsatish muhimdir. Shuningdek, jurnalistning jamiyatdagi roli va ahamiyatini ham ta'kidlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 27.06.2022.
<https://president.uz/oz/lists/view/5293>
2. Теория литературы: Учебник/В. Е. Хализев. – 4-е изд., испр. и доп.— М.: Высш. шк., 2004. 405 с.
3. Быкова Ю.Н. Образ журналиста: эволюция восприятия в новейшее время.
<https://cyberleninka.ru/article/n/obraz-zhurnalista-evolyutsiya-vospriyatiya-v-noveyshee-vremya> ;
Каминская Д. Образ современного журналиста. <https://xn--7sbafuabraerjyjmxvsmn8f.xn--p1ai/obraz-sovremennoogo-zhurnalista/>
4. Ashurova, N. (2022). Tarixiy romanlarda ayollar obrazi tasviri. Razvitie lingvistiki i literaturovedeniya i obrazovatel'nyix texnologiy v epoxu globalizatsii, 1(1), 206–209.
<https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5534>
5. Isaboeva G. O'zbek qissachiligidagi ona obrazi talqinlarining badiiy ifodasi.
[https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-issachiligidagi-ona-obrazi-tal-inlarining-badiiy-ifodasi/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-issachiligidagi-ona-obrazi-tal-inlarining-badiiy-ifodasi-viewer)
6. London Jek. Martin Iden. – "G'afur G'ulom", 1968-y. 432 b.

¹² London Jek. Martin Iden. – "G'afur G'ulom", 1968-y. 432 b.

¹³ Gi de Mopassan. Azizim. – "Yangi asr avlod", 2016-y. 464 b.

Date: 3rdFebruary-2025

7. [Gi de Mopassan](#). Azizim. – “Yangi asr avlodi”, 2016-y. 464 b.

